

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

**“Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası assistenti Sh.A. Botirovaning
“Klinik diagnostika” fanidan**

**«Xalqum, qizilo’ngach, to’rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish» mavzusi
bo’yicha**

60840100 - Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo’yicha) ta’lim yo’nalishi
3-bosqich 309 – guruh talabalari uchun

Amaliy mashg’ulot ishlanmasi

Samarqand – 2025 yil

Tuzuvchi:

Sh.A. Botirova– “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası assistenti

Taqrizchilar:

S.B. Eshburiyev - “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası mudiri, v.f.d. dotsent

O.U. Qo‘ldoshev - VITI, Vetsanitariya va urchitish patologiya laboratoriyasi mudiri,
v.f.d.

**Mavzu: "Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish"
mavzusidagi amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

<i>Mashg'ulot vaqti – 80 daqiqa</i>	Talabalar soni- 24 nafar
<i>O'quv mashg'ulotning shakli: amaliy mashg'ulot</i>	Salomlashish, yo'qlama, o'tilgan mavzuni so'rash va baholash, yangi mavzuni tushuntirish va ish jarayonini tashkillashtirish.
<i>Amaliy mashg'ulotining o'quv elementlari:</i>	1.Xalqum va qizilo'ngach tekshirish. 2.To'r qorin va qatqorin tekshirish. 3.Shirdonni tekshirish.
1. O'quv mashg'ulot maqsadi. Talabalarga kavshovchi hayvonlarda xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida klinik tekshirib, kasalliklarning xususiyati va kechayotgan joyini aniqlashni ko'rsatib berish orqali ko'nikmalarini shakllantirish.	
<p align="center">Pedagogik vazifalar:</p> <p>1.1. Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirganda quyidagi ko'rsatgichlarni aniqlash usullarini talabalarga namoyish etish: xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni joylashgan joyini ko'rish paypaslash, perkussiya va auskultatsiyada tekshirganda o'zgarishlar bor-yo'qligi, sog'lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi, hayvonda bajarib ko'rsatadi.</p> <p>1.2. Talabalarga xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni ko'rish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usuli yordamida hayvonda tekshirib, tekshirish natijalarini daftarga yozishga topshiriq beradi. O'qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi.</p> <p align="center">(1-topshiriq)</p> <p>1. Talaba hayvonning bosh tarafiga kelib xalqumni tekshirib belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga</p>	<p align="center">O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>1.1. Talabalar eshitadi yozadi va mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajarib, natijalarini daftarga yozib, vrachlik xulosasini shakllantiradi.</p> <p>1.2. Talabalar hayvonlarda ko'rish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usullari yordamida hayvonni xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirib o'zgarishlar bor yo'qligi klinik tekshirilib aniqlaydi va natijalarini daftarga tushiradi hamda vrachlik xulosasini yozadi.</p> <p>1. Talabalar bimanual paypaslash usulida tekshirganida halqum shakli, harorati, oriq bor yo'qligi va yot narsa bor yo'qligiga</p>

<p>yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O‘qituvchi talabanning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p style="text-align: center;">(2-topshiriq)</p> <p>2. Talaba hayvonning chap tamonidan qizilo‘ngachni tekshirib belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O‘qituvchi talabanning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p style="text-align: center;">(3-topshiriq)</p> <p>3. Talaba hayvonning chap tamonidan to‘rqorinni, tekshirib belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O‘qituvchi talabanning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p style="text-align: center;">(4-topshiriq)</p> <p>4. Talaba hayvonning o‘ng tamonidan qatqorinni tekshirib belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O‘qituvchi talabanning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p style="text-align: center;">(5-topshiriq)</p> <p>5. Talaba hayvonning o‘ng tamondan shirdonni ko‘rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida tekshirib belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarni daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini ifodalaydi.</p> <p>5. Darsni yakunlash.</p>	<p>e‘tibor beradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p>2. Talabalar qizilo‘ngachni ko‘rish usulida tekshirib, oziqa va suvning o‘tishiga, shish bor yo‘qligiga e‘tibor beriladi. Bimanual paypaslash usulida tekshirganida qizilo‘ngachni og‘riq bor yo‘qligiga, mahaliy haroratiga, kengayishlar bor yo‘qligiga e‘tibor beradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p>3. Talabalar chuqur paypaslash usulida tekshirganida to‘rqorin sohasida og‘riq bor yo‘qligiga e‘tibor beradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p>4. Talabalar qatqorinni auskultatsiya usulida tekshirganda tovushlarga e‘tibor beradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p>5. Talabalar ko‘rish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usullarida tekshirganida shirdon joylashgan sohaning o‘zgarishiga, paypaslaganda og‘riq sezishiga, perkussiya va auskultatsiya usulida tekshirganda tovushlarga e‘tibor beradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p>5. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar.</p>
<p><i>Ta’lim usullari</i></p>	<p>Aqliy hujum, tezkor savol javob,</p>

	kichik guruhlarda ishlash, topshiriqlarni mustaqil bajarish.
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Guruhli
<i>Ta'lim vositalari</i>	Hayvon (sigir, qo'y. echki) kompyuter, videoproektor, slaydlar, plessimetr, fonendoskop, perkussion bolg'acha, sochiq, doska, tarqatma materiallar, ko'rgazmali jixozlar.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus jihozlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor – so'rov, test.

**“Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish”
mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorlov bosqichi	Mavzu bo'yicha ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi	
1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. O'tilgan mavzuni so'raydi, baholaydi va yangi mavzu bilan bog'laydi. 1.2 Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.3. Tekshirilayotgan organlarda ko'rsatgichlar sog'lomlikda qanday bo'lishi va kasalliklarda qanday o'zgarishi haqida ma'lumot beradi.	1. Tinglaydilar. 2. Savollarga javob beradi. 3. Eshitadi, yozib oladi.
	2.2. Mavzu bo'yicha tekshiriladigan organlarni ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida: tekshirib o'zgarishlar bor-yo'qligi, sog'lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi va	2.2. Talabalar kichik guruhlariga ajralib, organlarni ko'rish, paypaslash, perkussiya va eshitish usullarida tekshirib o'zgarishlar bor-yo'qligi,

<p>2 - bosqich Asosiy bosqich (60 daq.)</p>	<p>hayvonda bajarib ko'rsatadi. Talabalarni o'zlari mustaqil tekshirib topshiriqni bajaradilar o'qituvchi nazorat qiladi. 2.3. Talaba organlarni hayvonning chap va o'ng tomonlari tekshirib, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O'qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qiladi.</p>	<p>eshitganda tovushlar xususiyatiga qarab xulosalarni daftarga yozadi. 2.3. Talabalar kichik guruhlarga ajralib, organlarni tekshiradi, tahlil qiladi va xulosasini yozadi.</p>
<p>3 - bosqich. yakuniy (10 daq.)</p>	<p>3.1. Amaliy mashg'uloti bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni sog'lom yoki kasal deb diagnoz qo'yishda klinik tekshirish usullarini o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini, talabaga kelgusida kasbiy faoliyatlarida muhim ekanligini yetkazadi. 3.2. Darsda faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Dars yakunida umumiy xulosa chiqariladi, talabalar savoliga javob beradi, uyga topshiriq beriladi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar xulosa chiqaradilar va tushinmagan joylariga savollar beradi. 3.2. O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. 3.3. Tushinmagan joyiga savol beradi. Topshiriqni yozadilar.</p>

Mavzu: Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish

O'quv elementlari

1. Xalqum va qizilo'ngach tekshirish.
2. To'rqorin va qatqorin tekshirish.
3. Shirdonni tekshirish.

Mashg'ulotning maqsadi:

Talabalarga kavshovchi hayvonlarda **Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni** ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida klinik tekshirib, kasalliklarning xususiyati va kechayotgan joyini aniqlashni ko'rsatib berish orqali ko'nikmalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar;Xalqum, qizilo'ngach, to'rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish topografiyasi, tekshirish usullari.

<p>Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar</p>
--

1. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika va rentgenologiya. Darslik. Toshkent, 2019 yil.

Xorijiy adabiyotlar

1. Kondraxin I., Levchenko V. Diagnostika i terapiya vnutrennix bolezney jivotnyx. Uchebnik. – M.: Akvarium-Print, 2005 god.
2. Vasileva M.D. i dr. Praktikum po klinicheskoy diagnostiki bolezney jivotnyx. Moskva, 2004 god.
3. Cattle and sheep medicine. Philip R. Scott. Manson publishing. London, 2010 years.
4. Kurdeko A.R. Klinecheskaya diagnostika bolezney jivotnyx. Minsk, 2013 god.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirzoyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil.
2. Mirzoyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU,

2017 yil.

3. Mirzoyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.

4. Dilmurodov N.B., Eshmatov G‘.X. Hayvonlar anatomiyasi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlar Toshkent-2018 yil.

5. Eshimov D.E., Ro‘ziqulov R.F. “Hayvonlar fiziologiyasi fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Ilm Ziyo – 2012 yil.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz.
2. www:zooveterinariya.@mail.ru
3. www:sea@mail.net.ru
4. www:veterinary.@actavis.ru

14-amaliy mashg‘ulot;

Mavzu; Xalqum, qizilo‘ngach, to‘rqorin, qatqorin va shirdonni tekshirish.

O‘quv elementlari;

1. Xalqum va qizilo‘ngach tekshirish.
2. To‘rqorin va qatqorin tekshirish.
3. Shirdonni tekshirish.

B.B.B. SXEMASI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<i>(dars boshida yoziladi, talabining birlamchi bilimini baholash uchun)</i>	<i>(Dars boshida yoziladi o‘qituvchi ishini rejalash uchun)</i>	<i>(Dars oxirida yoziladi talabining qo‘shimcha olgan bilimini baholash uchun)</i>



Aqliy hujum

1. Kavshovchi hayvonlarda oshqozon oldi bo‘limlari necha kamerali.
2. Kavshovchilarning ko‘p bo‘lmali oshqozonining birinchi va eng kattasi qaysi bo‘limi?
3. Oshqozon oldi bo‘limlaridan kattaqorinni qaysi umumiy tekshirish usullaridan

Mavzuning dolzarbligi; Chorvachilik amaliyotida hayvonlarni saqlash va oziqlantirish talablariga rioya qilmaslik natijasida qoramollarda oshqozon oldi bo'limlari kasalliklari yil davomida uchraydi va xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari hayvonlar umumiy kasalligining 30-45 foizini tashkil etadi. Chunki juda ko'p sabablar bu tizim a'zolarining kasallanishiga olib keladi. Oshqozon-ichak tizimida ozuqalarning hazm bo'lishi modda almashuvining birinchi va dastlabki bosqichidir.

Tamoqni tekshirish. Tamoq jag' orqasida joylashgan bo'lib tashqi va ichki tamonlardan tekshiriladi, tashqi tamondan ko'rish usuli bilan tekshirilganda hayvonni boshi va buynini tutishiga va tamoq oblastida o'zgarish bor yukligiga e'tibor beriladi.

Normada hayvon boshini tabiiy tutadi, tamoq yallig'langanda hayvon boshini oldinga chuzib turadi, tamoq yallig'lansa tamoq oblastida aktinomikoz bo'lsa, qalqonsimon bezi kattarsa usha joy shishib turadi, bimanual palpasiya yordamida tamoqning hajmi, maxalliy harorati, og'riq sezishi, shishlar bor yuqligi aniqlanadi,

Normada, tamoq kattarmagan, harorati urtacha og'riqsiz buladi, tamoq yallig'lansa tamoq shishgan, og'riqli va issiq buladi. Aktinomikoz bo'lsa, dumaloq tugunchalar aniq bilinadi, qalqonsimon bez kattarsa shish tamoqning ikki tamonida, semmitrik rivojlangan buladi.

Ichki tamondan tekshirish uchun og'iz ochilib til bosilib tamoq kuriladi, uning rangi, shishganligi, tamoq teshigining holati aniqlanadi.

Sog'lom hayvonlarda – rangi och binafsha, shishmagan, tamoq teshigi ochiq buladi.

Tamoq yallig'lansa (faringitda) qizargan, shilliq pardalari shishgan, tamoq teshigi toraygan bo'ladi, tamoq paralichida tog'ay pastga tushib tamoq teshigini bekitadi, tamoqqa biror narsa tiqilgan bo'lsa o'sha narsa ko'rinib turadi, bulardan tashqari tamoq zond yuborish, rentgenografiya usullar bilan ham tekshiriladi,

Qizilo'ngachni tekshirish.

Qizilo'ngach – tamoqdan boshlanib, 5- bo'yin umirtqalari tug'risigacha kekirdak ustida joylashib, keyin kekirdakni chap tamoniga o'tadi, davom etadi, ko'krak qafasi orqali diafragmadan o'tib, kovshovchi hayvonlarda katta qoringa, boshqa hayvonlarda oshqozonga ochiladi.

Ko'rish, paypaslash, zond yuborish va rentgenografiya usullar bilan tekshiriladi.

Ko'rish usuli bilan tekshirganda qizilo'ngachdan ozikani o'tishi va shishlar bor yuqligiga e'tibor beriladi. Oziqalar qizilo'ngachdan to'liqinsimon, og'riqsiz va erkin o'tadi.

Qizilungach yallig'langanda (ezofagit), oziqa o'tganda hayvon bezovtalanib og'riq sezadi, tiqilib qolsa, kengaysa, qisilib qolsa, qizilo'ngach oblastida shishlar paydo

bo'ladi. Bimanual palpasiya yordamida qizilo'ngachning mahalliy harorati, og'riq sezishi, to'plangan moddalarning konsistensiyasi aniqlanadi.

Sog'lom hayvonlarda qizilungachda shishlar bo'lmaydi, og'riqsiz, harorati o'rtacha bo'ladi. Qizilo'ngach yallig'lansa—qizilungach og'riqli issiq bo'ladi. Qizilo'ngachda meva sabzavotlar tiqilib qolsa o'sha joy qattiq dumaloq bo'ladi, chaynalgan oziqlar tiqilib qolsa o'sha joy yumshoq konsistensiyali bo'ladi. Qizilo'ngachning kengayishiga devertikula, qisqarishiga spazm deyiladi.

Zond yuborib tekshirganda – zond qizilo'ngachdan qanday o'tayotganligiga va hayvonning reaksiyasiga e'tibor beriladi.

Sog'lom hayvonlarda zond qizilo'ngachdan qiyinlik bilan o'tadi. Lekin hayvon bezovtalanmaydi. Qizilo'ngach falajida zond erkin o'tadi. Qizilo'ngach yallig'langan bo'lsa zond yuborganda hayvon kuchli bezovtalanib og'riq sezadi, qizilo'ngach kengaygan bo'lsa (devertikulada) zond kengaygan joyga tushib buralib qoladi, qizilo'ngach tiqilib qolgan bo'lsa, zond tiqilgan joygacha borib keyin o'tmaydi.

Qizilo'ngachning ko'krak va qorin qisimlarida o'zgarishlar bo'lsa rentgenografiya usullari bilan tekshirib aniqlanadi. Bu xolat ko'proq qoramollarda kuzatiladi chunki ular oziqani 1 – 2 yamlab yutadi. Oziqlar tiqilishida kekirish bo'lmaydi katta qorinda gaz to'planadi.


To'rqorinni tekshirish. To'rqorin qorin bo'shlig'ining chap, oldingi, pastki qismida, kattaqorinning oldida, diafragma orqasida, to'sh suyagining xanjarsimon o'simtasi ustida joylashadi (6-7 qovurg'alarning to'sh suyagiga birlashgan joyida). To'rqorinni tekshirishning eng qulay va ko'p qo'llaniladigan usuli, to'sh suyagining xanjarsimon o'simtasi sohasini chuqur palpatsiya qilishdir. Buning uchun hayvonning chap tomonidan to'sh suyagi to'g'risiga o'tirib, o'ng qo'l mushti xanjarsimon o'simta ostiga, tirsak esa tizza ustiga qo'yilib, oyoq to'voni ko'tariladi. Shunda musht ham yuqoriga ko'tariladi va to'rqorin sohasiga bosim beradi. Travmatik retikulit kasalligi bo'lsa, hayvon kuchli og'riq sezadi, ingraydi va tekshirishdan o'zini olib qochadi

1-topshiriq

Talaba tomoq va qizilo'ngachni ko'rish va paypaslash usullari bilan tekshirib, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarini daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosalarini ifodalaydi.

2-topshiriq


Talaba hayvonning chap tomonidan to'rqorinni chuqur paypaslash orqali tekshiradi va belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, daftariga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakllantiradi.



Qatqorinni tekshirish. Qatqorin qorin bo'shlig'ining o'ng tomonida, yelka bo'g'ini chizig'ida, 7-10 qovurg'alar ostida joylashgan bo'ladi va asosan auskultatsiya usuli bilan tekshiriladi. Sog'lom hayvonlar qatqorinidan kuchsiz, nozik, zo'rg'a eshitiladigan shitirlash, qisirlash tovushlari eshitiladi. Qatqorin tiqilib qotib qolgan bo'lsa, bu tovushlar eshitilmaydi.

3-topshiriq

Talaba hayvonning chap orqa tomonidan qatqorinni ko'rish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usullarida tekshirib, belgilangan ko'rsatgichlarini aniqlab, natijalarini daftariga yozib, tahlil qilib, xulosasini yozadi.



Shirdonni tekshirish. Shirdon qorin bo'shlig'ining o'ng tomonida, qatqorin ostida, o'ng qovurg'a yoyi ostida joylashgan bo'lib, ko'rish, palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya usullari bilan tekshiriladi. Sog'lom hayvonlar shirdoni kattarmagan, paypaslanganda og'riq sezmaydi, perkussiyada kuchsiz nog'orasimon yoki bo'g'iqroq tovush; auskultatsiyada qisirlagan, shitirlagan va shildiragan tovushlar eshitiladi. Shirdon yallig'langanda va shirdon yarasida hayvon og'riq sezadi, ingraydi, tishini gijirlatadi; peristaltikasi kamaysa va pasaysa, auskultatsiyada eshitiladigan tovushlar

siyrak va sust eshitiladi.

4-topshiriq

Talaba o'ng tamondan shirdonni ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida tekshirib belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarni daftoriga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini ifodalaydi.



Nazorat savollari.

1. To'rqorinni tekshirganda qaysi ko'rsatgichlar aniqlanadi?
2. Qatqorin kasalliklarida qanaqa belgilar kuzatiladi?
3. Shirdonni tekshirishning diagnostik ahamiyatini tushuntiring?

